

## VOKAL SAN'ATI : NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

*Muallif : Xaydarova Sarvinoz Mansurovna*

*Ta'lim mussasi : Navoiy davlat universiteti san'at va sport fakulteti Professional Vokal san'ati guruhi talabasi*

*Ilmiy Rahbar : Aslonov Sherzod Turg'unovich*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada vokal san'atining nazariy va amaliy asoslari ,uning musiqiy madaniyatdagi o'rni hamda yosh avlodni estetik tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan.Shuningdek vokal ijrochiligini rivojlantirishda nafas olish texnikasi, diksiya,intonatsiya va sahna madaniyatining ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** vokal san'ati ,vokal pedagogikasi,ijrochilik, nafas diksiya,ovoz apparati, intonatsiya,musiqiy ta'lim, estetik tarbiya.

### **Kirish**

Vokal san'ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim san'at turlaridan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan boshlab insonlar turli marosimlar,mehnat jarayonlari va bayramlarda qo'shiqlar kuylab kelganlar.Vokal ijrochiligi xalq og'zaki ijodi,maqom san'ati opera va zamonaviy estrada yo'nalishlarining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.Inson ovozi eng mukammal va tabiiy musiqa asbobi bo'lib,u orqali turli his-tuyg'lar, kechinmalar va badiiy obrazlar ifodalanadi.

Bugungi kunda vokal san'ati milliy va jahon musiqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda.Ayniqsa yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalashda vocal ta'limining ahamiyati kata.Vokal mashg'ulotlari o'quvchilarning musiqiy didinishakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va sahna oshirishga xizmat qiladi.

### **Asosiy qism**

Vokal san'ati musiqa asarlarini inson ovozi yordamida ijro etish sana'tidir. U yakka ijrochilik,ansambl vax or ijrochiligi kabi shakllarga bo'linadi.

Vokal san'ati ta'limida quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi

- To'g'ri nafas olish texnikasini shakllantirish;
- Ovoz apparatini sog'lom rivojlantirish;
- Diksiya va artikulatsiyani takomillashtirish;
- Badiiy talqin va sahna mahoratini oshirish.

Mazkur omillar vokal ijrochilik mahoratini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Vokal mashg'lotlarida eng avvalo nafas olish texnikasiga e'tibor qaratiladi.

To'g'ri nafas olish kuylash jarayonida ovozning barqaror, kuchli va ravon chiqishin ta'milaydi. Diafragma yordamida nafas olish professional vokal ijrochilar uchun muhim hisoblanadi.Shuningdek, diksiya va artikulyatsiya

ustida ishlash ham ahamiyatga ega. So'zlarning aniq talaffuz qilinish tinglavchiga asar mazmunini to'liq yetkazib berishga yordam beradi. Vokal mashqlar yodamida til,

lab va jag' mushaklari rivojlantiriladi. Inotonatsion aniqlik vokal jrochilikning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Kuylash jarayonida har bir tovushning to'g'ri balandlikda yangrashi musiqiy asarning sifatli ijro etilishiga xizmat qiladi.

Vokal mashg'ulotlari jarayonida sahna madaniyatini shakllantirish ham muhimdir.

Vokal san'ati yosh avlodni ma'naviy va estetik jihatdan tarbiyalashning samarali vositalaridan biridir.

Qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarda go'zallikni his etish, musiqa madaniyatini anglash va milliy qadryatlarga hurmat tuyg'usi shakllanadi.

O'zbekiston musiqa ta'limi tizimida vocal san'atiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassalari hamda oliy ta'lim muassalarida vocal ijrochiligini o'qitish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda vokal pedagogikasida innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlar keng foydalanilmoqda. Audio va video yozuvlar, multimedia vositalari hamda raqamli dasturlar yordamida o'quvchilarning vokal mahoratini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

### **Xulosa**

Vokal san'ati musiqiy madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Vokal ta'limining ilmiy asoslangan metodlarini qo'llash ijrochilik mahoratini rivojlantirishga, milliy va jahon musiqiy merosini o'rganishga xizmat qiladi va yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuning uchun vokal san'atini o'rganish va uni yoshlar orasida keng targ'ib etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rajabov I. **Musiqa ta'limi metodikasi** –Toshkent 2020
2. Karimov A. **Vokal ijrochiligi**- Toshkent 2019
3. Omonullaeva D. **Musiqa pedagogikasi**- Toshkent 2021
4. O'zbek musiqa san'ati tarixi. Toshkent 2018
5. Musiqa madaniyati fanidan o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalar to'plami.

